

INSONNING MUSIQA FAOLIYATI: IJOD, IJRO VA TINGLASH HAQIDA

Saydaxmedova Umida Muxammadamin qizi

Respublika musiqa va san'at kolleji

Insonning musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (uquv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli alohida ko'rinishga ega bo'ladi. Ijodiy jarayonda badiiy g'oya va shakl muallif ongida bir-biriga bog'liq holatda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyoqarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy va mahoratiga mos ravishda o'zgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni o'zlarining shaxsiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo'ladi. Musiqa asarlarini jozibali va maromiga yetkazib ijro etishda musiqa cholg'u asboblarning o'rni hamda ahamiyati kattadir. Musiqa cholg'u asboblari musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdor tovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan. Ular musiqani yakkanavoz yoki jamoa, turli ansambl, orkestr va boshqa tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir musiqa cholg'u asboblarning sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazotm tovush va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqa cholg'u asboblari sadosining sifati, ko'pincha, cholg'u asbobining shakli, umumiy tuzilishi, yasalgan materialiga bog'liq bo'ladi. Musiqiy janrlar ichida eng murakkabi, ammo inson qalbiga tez yetib bora oladigani, sozanda tomonidan mohirlik bilan cholg'u sozida ijro etiladigani kuy hisoblanadi. Sozanda ijro etayotgan har bir kuy-ohang o'zining ma'lum bir mazmun mohiyatiga ega bo'lib, u tinglovchiga tovush orqali ta'sir etadi va badiiy obraz yaratadi. Kuyning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, so'z beoqibat qolganda kuy yordamida ko'ngilni eng hilvatli joylarini ham zabt etish imkoniyatiga egadir. Kuy-ohang qo'shiqlar ijrosi yoqimli bo'lishi yoki biror musiqiy obrazni yanada boyitib tinglovchilarga eshittirish uchun musiqada dinamik belgilar qo'llaniladi. Tovush qanday kengaytirilishini ko'rsatuvchi, italyanchadan olingan bu belgilar nomlanishini va ma'nosini butun dunyo xalqlari bir xil tushunadilar. Har bir musiqiy asarni o'z maromiga yetkazib, jozibali his- tuyg'u, mahorat bilan ijro etishda ijrochi (xonanda, sozanda) dan turli ijro uslublarini qo'llash, ularga amal qilish talab etiladi. Asarni ijro etishda dinamik belgilarning o'rni va ahamiyati muhimdir. DINAMIKA (musiqada) - 1) muayyan asarning nota yozuvida va bevosita uni ijro etishda tovushlar sadolanishi kuchi (baland-pastligi) ning o'zgaruvchanligi; 2) shu o'zgaruvchanlikni ifodalovchi belgilar majmui; 3) mazkur jarayonni



o'rganuvchi ta'limot. Dinamika musiqiy ifodaning muhim vositalaridan bo'lib, xalq va professional ijod va ijrochilikda qadimdan qo'llanilib kelingan. Dinamika atamasi ilk bor shveysar musiqqa o'qituvchisi X. Negeli tomonidan (1810) joriy etilgan degan taxmin bor. Dinamikaning eng aniq, ya'ni kuchli, baland - forte, fortissimo; kuchsiz, past, sekin -piano, pianissimo (r, rr) va b. turlari qo'llaniladi. Shu bilan birga, muayyan Dinamikadan boshqasiga asta-sekin o'tib boruvchi (sadoning kuchayishi - crescendo, sadoning pasayishi - diminuendo, va b.) turlari ham joriy etiladi. Ijodiy amaliyotda butun bir asarni muayyan dinamika xususiyatlariga izchil tayanib yaratish misollari uchrab turadi. 1 Demak, ijrochidan musiqqa asarini ijro etish jarayonida ovoz tempini muayyan o'zgarishiga, past va kuchli ohangni o'z me'yorida qo'llanilishiga amal qilish talab etiladi. Musiqada ritm, metr va tempning ahamiyati katta, chunki ularning hammasi musiqaning harakati, uyg'unlashuvi va xarakterini belgilaydi. Musiqada tovushning balandligi, qattiqligi, tembri muhimdir. Musiqqa tovushining baland yoki past holatda ijro etilishi kuyning ohang va yo'nalishiga qarab belgilanadi. Ma'lumki, har bir cholg'u asbobi yoki kishi ovozi o'ziga xostembrga ega bo'lib, ularda eshitiladigan ma'lum bir baland-likdagi tovushlar o'zlarining rang-barangliklari bilan bir-biridan ajralib turadi. Har bir musiqiy tovush betakror o'ziga xos tembriga, yahni musiqiy rangiga ega. Ovoz temblari xususiyatiga ko'ra mayin, jarangdor, nozik, yo'g'on, ingichka, bo'g'iq, yoqimli kabi his-tuyg'ularni ifoda etadi. Temblarning farqlanishi har bir tovushga xos bo'lgan yuqori tonlarning tarkibiga, tabiiy aks sadolarga va ijro mahoratiga bog'liq. Musiqaning ijrosida musiqiy bezaklarning o'rnini ham kattadir. Musiqiy bezaklar kuyning asosiy tovushlarini bezatuvchi ohangdor figuralardir. Musiqiy bezaklarga musiqashunos olim V.Vaxromeev o'zining "Muzikaning elementar nazariyasi" kitobida shunday ta'rif bergan: "Muzika bezaklari o'lchovi o'zlaridan oldin keladigan cho'zimlar yoki bezatuvchi tovush cho'zimiga teng keladi, shuning uchun ularning o'lchov hissalarini mazkur taktning asosiy hissalarini yig'indisiga qo'shilmaydi. Muzika bezaklarini asosiy tovushdan sekunda oralig'ida joylashadigan yordamchi tovushlar hosil qiladi. Ular nota yozuvida maxsus belgilar yoki kichik shriftli notalar bilan ko'rsatiladi. 2 Musiqada quyidagi musiqiy bezaklar qo'llaniladi: forshlag, mordent, gruppetto va trel va boshqalar. Bu musiqqa bezaklari uzun yoki qisqa, asosiy yoki yordamchi tovushlar yordamida ijro etiladi. Ular notaning ust yoki quyi qismlariga yoziladi va o'qilishi orqali kuy ijro etiladi. Musiqiy bezaklar asosan sozandaga musiqqa tovushlarini o'z o'rnida to'g'ri qo'llashi va notalarni to'g'ri anglab yetishi uchun muhim ahamiyatga egadir. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yoshlarni musiqqa ijrochiligi san'ati bo'yicha



tarbiyalashda o'zbek xalq cholg'ularining o'z o'rne bor. Bunda yoshlar o'zbek xalq cholg'ularining turlari, tarixi, yasalashi, cholg'ularning tuzilishi, qismlari, sozlanishi, diapozoni, tovush chiqarish madaniyati o'ng va chap qo'l harakati uyg'unligi, ijro holati va qoidalari, ijrochilik uslublari, shtrixlar turini o'zlashtirish, applikator, pozitsiya, sozandalik maktabi, cholg'u ijrochilar faoliyati, partitura bo'yicha cholg'ular joylashuvi va cholg'ularni saqlashni o'zlashtiradi. Har bir sozanda yoshlar xalq cholg'ularining rang-barangligini his qilishda dastlabki ijro malakalari, zarblari, temp, o'lchov, ritm, dinamika, ijro mahoratini oshirish uchun gamma, etyudlar, hamda kichik kuylar ijrosini egallashlari orqali o'z bilim va ko'nikmalarini hosil qiladilar. Bu esa o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari va jahon klassik asarlari meroslari bilan tanishib, xalq cholg'ularinining rangbarangligidan foydalanish uchun ularning kelgusi faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Turg'unova. Cholg'u ijrochiligi. Toshkent. 2020.
2. V.Vaxromeev. Muzikaning elementar nazariyasi. Toshkent. "O'qituvchi", 1980
3. Sh.Raximov, A.Lutfullaev. Cholg'ushunoslik. Toshkent. "Asian Book House".2020.

